

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– mart holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1070 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,6 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1293 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-mart oyida vilo yiatda 1293 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa tashkilotlar soni 1070 (4,2 %) o'tgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga kam.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 % ga oshgan hamda ularning soni 225 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.


Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1070 (4,2 %) o'sgan hamda ularning umumiy soni 27,073 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Farg'ona 18,7 %), Qo'qon (13,9%), Marg'ilon (10,0%) shaharlarda, Uchko'prik (5,0 %) va Dang'ara (4,8 %) tumanlarida kuzatilmoxda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda

2018




## ***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)*

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Farg'onा viloyati	27073	100,0	26627	98,4
Far'gona sh.	5074	18,8	4980	18,7
Qo'qon sh.	3759	13,9	3706	13,9
Quvasoy sh.	749	2,8	736	2,8
Marg'ilon sh.	2650	9,8	2633	10,0
tumanlar				
Oltiariq	1137	4,2	1129	4,2
Qo'shtepa	897	3,3	886	3,3
Bog'dod	942	3,5	939	3,5
Buvayda	1196	4,4	1174	4,4
Beshariq	821	3,0	808	3,0
Quva	1110	4,1	1085	4,1
Uchko'prik	1389	5,1	1330	5,0
Rishton	823	3,0	809	3,0
So'x	666	2,5	666	2,5
Toshloq	1178	4,4	1157	4,3
O'zbekiston	1197	4,4	1170	4,4
Farg'ona	951	3,5	918	3,4
Dang'ara	1294	4,8	1270	4,8
Furqat	624	2,3	617	2,3
Yozyovon	616	2,3	614	2,3

### **Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 98,4 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 1,6 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. ga kamayganligini ko'rsatmoqda.




faoliyat ko'rsatayotganlar




faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,3 % savdoda, 21,2 % sanoatda, 8,0 % qurulishda, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 3,9 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




### **Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda**




2018 yil yanvar-mart holatiga 1293 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 5,5 % ga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (212 ta), Qo'qon (156 ta), Marg'ilon (104 ta) shaharlarida, Oltiariq (86 ta), Uchko'prik (82 ta) va Buvayda (77 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (32 ta) hamda Qo'shtepa (31 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (344 ta), savdoda (234 ta), qurilishda (113 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi (82 ta) va ya-shash va ovqatlanish xizmatlarida (57 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (31 ta), tashish va saqlashda (51 ta) va sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (39 ta) tashkil etilgan.

### **Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi axborot va aloqada (-2,3 f.p.dan), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,1 f.p) kamayganligi, buning natijasida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,1 f.p.), savdoda (+0,1 f.p), tashish va saqlashda (+0,2 f.p.), qurulishda (+0,2 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,3 f.p.dan), sanoatda (+1,3 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+1,3 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


### **Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari nomi</b>	<b>01.04.2018 y.</b>	<b>01.04.2017 y.</b>	<b>farqi (+-)</b>
Axborot va aloqa	3,9	6,2	-2,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,4	3,5	-1,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5,5	5,4	0,1
Savdo	21,3	21,2	0,1
Tashish va saqlash	4,1	3,9	0,2
Qurilish	8,0	7,8	0,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,4	4,1	0,3
Sanoat	21,2	19,9	1,3
Boshqa turlari	29,3	28	1,3

### **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 aprel holatiga 21392 tadan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 8223 ta, oilaviy korxonalar – 2359 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10291 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 51 tani va boshqalar 637 tani tashkil etadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 214 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 44 taga yoki 20,1 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 157 tasi qo'shma korxonalar, 57 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarining soni, birlikda




## **Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 81 ta (37,8 %), Qo'qon 34 ta (15,9 %), Marg'ilon 15 ta (7,0) shaharlarida, Farg'ona tumanida 13 ta (6,1 %) va Quvasoy shahar 12 ta (5,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,9 %), Furqat tumani 2 ta (0,9 %), Qo'shtepa tumani 3 ta (1,4 %), Bag'dod tumani 3 ta (1,4 %), Buvayda tumani 3 ta (1,4 %) va Yozyovon tumani 3 ta (1,4 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda**



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 152 ta (71,0 %), savdoda 19 ta (8,8 %), boshqa turlarida esa 10 ta (4,7 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (1,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 5 ta (2,3 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 6 ta (2,8 %), qurilishda 5 ta (2,3 %), tashish va saqlashda 7 ta (3,3 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 8 ta (3,7 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### **Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yilning yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 10 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga ko'paygan yoki 25 foizga oshgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 7 ta, savdoda 2 ta va qurilishda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 aprel holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 21,4 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 9,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4079 tasi (19,1 %) Farg'ona, 3199 tasi (15. %) Qo'qon, 2312 tasi (10,8 %) Marg'ilon shaharlariga, 1143 tasi (5,3 %) Uchko'prik va 1087 tasi (5,1 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 21,4 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 5618 tasi (26,3%) – savdoda, 5514 tasi (25,8 %) - sanoatda, 2208 tasi (10,3 %) - qurilishda, 1422 tasi (6,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1155 tasi (5,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1111 tasi (5,2 %) - tashish va saqlashda, 993 tasi (4,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 448 tasi (2,1 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2923 tasi (13,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-mart holatiga 1105 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 16,4 foizga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona (192 ta), Qo'qon (132 ta), Marg'ilon (87 ta) shaharlarida, Oltiariq (69 ta) va Buvayda (75 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (22 ta), Beshariq (27 ta) hamda Qo'shtepa (19 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (343 ta), savdoda (234 ta), boshqa turdag'i xizmatlar (157 ta), qurilishda (112 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (82 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (57 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (31 ta), tashish va saqlashda (51 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (38 ta) tashkil etilgan.


### Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 aprel holatiga 2359 tani tashkil etib, ulardan 2322 tasi yoki 98,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **26,8 %**ga oshganligini ta`kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 48,7 % yoki 1130 tasi sanoat, 12,3 % yoki 286 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,6 % yoki 292 tasi savdo, 9,9 % yoki 229 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,4 % yoki 56 tasi tashish va saqlash, 1,6 % yoki 37 tasi axborot va aloqa, 1,4 % yoki 32 tasi qurilish, 0,8 % yoki 19 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 10,4 % yoki 241 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



**Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'lumi**  
**Nashr uchun mas'ul: E.Ro'ziboyev**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat**  
**registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida**  
**tayyorlangan**